

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

3-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 3 (5) - 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNII .....	237-241
<i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoiev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIK LARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafroz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIK LARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIK DAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322



<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372
<b>12.00.00 - YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI .....	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI .....	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI .....	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH .....	433-442
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI .....	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI .....	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH .....	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI .....	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV .....	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHLATLARI .....	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI .....	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025

**Accepted:** 5 March 2025

**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

## **MEANS OF ENSURING CONTINUITY IN FORMING STUDENTS' INTEREST IN SPORTS CLUBS**

**Khamroev Samijon Salimovich**

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Methods of Teaching Sports, Navoi State University.

E-mail: [hamroyev84@bk.ru](mailto:hamroyev84@bk.ru)

**Abstract.** This article discusses the development of social-pedagogical technologies for effectively organizing students' free time, as well as the issues of shaping physical culture among young people through the purposeful direction of the activities of sports clubs and sections. It also focuses on promoting a healthy lifestyle, further developing mass sports, and improving the social-pedagogical system aimed at increasing student youth's interest in physical education and sports.

**Keywords:** metasubject, anthropometric, circle, technology, innovation, cluster, form, method, component.

## **SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI**

**Xamroyev Samijon Salimovich**

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent.

Navoiy davlat universiteti

"Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini rivojlantirish, sport to'garaklari va klublari faoliyatini maqsadli yo'naltirish orqali yoshlarda jismoniy madaniyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ommaviy sportni yanada rivojlantirish hamda talaba-yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik tizimni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** metapredmet, antropometrik, to'garak, texnologiya, innovatsiya, klaster, shakl, metod, komponent.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N69>

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosiy maqsadi xalq farovonligini oshirish, aholining barcha qatlamlarida ma'naviy va jismoniy sog'lom muhitni shakllantirish hamda yosh avlodning salomatligini mustahkamlashdan iborat. Shu sababli jismoniy tarbiya va sportga qaratilgan e'tibor ko'plab davlatlar uchun dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biriga aylangan.

Sport faqatgina jismoniy va ma'naviy salomatlik garovi bo'lib qolmay, balki hayotga katta ishonch bilan qadam qo'yayotgan yoshlarni zararli g'oyalar va salbiy odatlardan himoya qilish, shuningdek, ularning qobiliyat va iste'dodlarini to'liq namoyon etish imkoniyatini yaratishning samarali vositasidir.

Ayniqsa, talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, sport to'garaklari va klublari faoliyatini maqsadli tashkil etish orqali yoshlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda dunyo miqyosida sog'lomlashtiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning valeologik madaniyatini rivojlantirish, darsdan tashqari mashg'ulotlarda sport o'yinlari orqali jismoniy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda sport to'garaklarini tashkil etishning interaktiv modellarini takomillashtirish bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, talaba-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni shakllantirish jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, sport to'garaklarini tashkil etishda valeologik hamda psixo-pedagogik talablarni takomillashtirish, shuningdek, to'garak mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirishning texnologik asoslarini rivojlantirish hamda konstruktiv imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, klasterli va genderli yondashuv asosida sport to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, madaniyatshunoslikka doir va kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini samarali tashkil etish jarayonida sportchilar haqida doimiy va batafsil axborotga ega bo'lish muhimdir. Faqat shunday holatda sport murabbiylari, pedagoglar va soha mutaxassislari o'z faoliyatlarini yuqori samaradorlik bilan amalga oshirishi mumkin. Bu axborot o'quvchilarning individual ehtiyojlarini, jismoniy salohiyatini va rivojlanish darajasini to'liq hisobga olish imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bunday ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash, o'z navbatida, trenirovka mashg'ulotlarining asosiy va hal qiluvchi yo'nalishlarini hamda kerakli samarali vositalarini tanlash, tayyorgarlik ishlarini sifatli rejalashtirish, dasturlash va samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi.[1, 4]

Sport bilan shug'ullanganda salomatlikni mustahkamlash, jismonan rivojlanish, yanada kuchli, tezkor, chaqqon, chidamli bo'lish mumkin. Sport kun tartibiga rioya qilishga o'rgatadi, organizmni chiniqtiradi, lekin u yana sportchining axloqiy-irodaviy fazilatlarini rivojlanishiga, psixologik tayyorgarligiga ham ta'sir ko'rsatadi. [2, 19]

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish, sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, talaba-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni oshirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish omillari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, pedagogik modelini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslari, mashg'ulotlari, sport maktablari va to'garaklari faoliyatini tubdan yangilash, o'quv jarayoniga samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagogik faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati mazmuni va diapazonini oshirishga xizmat qilmoqda.[3, 272]

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu asosan jamiyatda inson jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qila

olishligi va ayni paytda uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsata olishligidadir. [4, 15]

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida", 2019-yil 13-fevraldagi 118-son "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlarida, "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.[5, 4]

**Tahlil va natijalar.** Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatni barpo etish, kuchli fuqarolik jamiyatini yaratish, erkin iqtisodiy bozor munosabatlari va xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu tadbirlar xalqimizning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro maydonda yuqori mavqeyini egallashiga xizmat qilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar zamirida xalqning turmush tarzini yaxshilash, aholining barcha qatlamlarida ma'nan va jismonan sog'lom muhitni yaratish, salomatlikni mustahkamlash g'oyasi yotibdi.

Biz ushbu yuqorida keltirilgan masalalarga yechim topishda quyidagini maqsad qilib belgilab oldik, ya'ni sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish.

Va bu asosda quyida keltirilgan vazifalar belgilab olindi:

talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

innovatsion yondashuv asosida sport to'garaklarining talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida sport to'garaklari vositasida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash va samaradorligini baholash.

Masalaning tub mohiyatini yoritib berish asnosida quyidagi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, yuqorida keltirilgan mulohazalarga yechim topishda amaliy ahamiyat kasb etadi:

talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning ergonopedagogik xususiyatlari muntazam mashq qilish orqali ta'lim oluvchilarning shaxsiy kamolotga erishishga yo'naltirilgan, uzluksiz o'z-o'zini anglash jarayonida jismoniy sifatlarni egallashni, shu jumladan, iroda, mehnatsevarlik, jasurlik kabi tayanch ma'naviy kompetensiyalarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon motivatsion va kognitiv komponentlar orqali regulyativlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, bu esa talabalarning ichki motivatsiyasini oshirishga va jismoniy faoliyat orqali ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi;

sport to'garaklarining talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy, estetik potentsiali faoliyatga doir, aksiologik, psixoterapevtik va vegetativ yondashuvlar asosida ta'lim oluvchilarning qadriyatli yo'nalganligini aniqlash, mashg'ulotlarni differensial tarzda tashkil etish va ehtiyojga asoslangan ichki motivatsiyani barqarorlashtirish uchun pedagogik mexanizmlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar, talabalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini birlashtirishga, ularning psixologik salomatligini yaxshilashga va sport faoliyatiga bo'lgan qiziqishni mustahkamlashga imkon beradi;

sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish modelining tashkiliy-pedagogik komponenti, tayanch, variativ va mustaqil faoliyat kabi tarkibiy qismlarga asoslanadi. Bu modelni nazariy-metodik bilimlarni maxsus, metapredmetli va sport-sog'lomlashtiruvchi modulli mashg'ulotlar jarayonida tarkib to'plab, didaktik-adaptiv algoritmi ishlab chiqish orqali takomillashtirish mumkin. Ushbu algoritmi, talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olib, ularning jismoniy madaniyatini rivojlantirish jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilishga imkon yaratadi;

sport to'garaklari vositasida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishda, ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligidagi ijobiy o'zgarishlarni baholash uchun antropometrik testlar, funksional sinovlar va jismoniy tayyorgarlik testlaridan foydalanish mumkin. Ushbu testlar va baholash usullari, fanga doir kognitiv, qadriyatli-mazmunli va informatsion kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu jarayonda muntazamlik va takroriylik dinamikasini ta'minlash orqali talabalarning jismoniy madaniyati, sog'lom turmush tarziga oid kompetensiyalarining yaxshilanishi kuzatiladi. Takomillashtirilgan baholash usullari, talabalarning jismoniy tayyorgarligi va bilim darajasining o'sishini monitoring qilish imkonini yaratadi.

Inson hayotining dastlabki ikki o'n yilligi uning shaxs sifatida shakllanishida juda muhim davrni tashkil etadi. Bu davrda nafaqat shaxsiy xususiyatlar, balki organizmning salomatligi uchun ham mustahkam asoslar qo'yiladi. Yoshlar va bolalar organizmi jismoniy va ruhiy jihatdan tez o'zgarib boradiganligi sababli, bu davrda ularning jismoniy tarbiyasi va salomatligini qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Bu davrda yoshlar ko'pincha o'qish va kasbga tayyorgarlik bilan band bo'lib, butun vaqtlarini o'qishga bag'ishlaydilar, bu esa ularni jismoniy faollikdan mahrum qiladi.

Natijada, kam harakatlilik organizmda turli xil kasalliklarning dastlabki belgilari paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday holatlarda, yoshlarning immun tizimi zaiflashadi, tashqi muhitga qarshilik ko'rsatish qobiliyati pasayadi va yuqori nafas yo'llari yallig'lanishi ortib boradi. Shuning uchun talabalarning jismoniy faoliyatini ta'minlash, ularni harakatga undash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish juda muhimdir.

Kasalliklardan xalos bo'lish muddati cho'zilib, uning asoratlari keyingi yillar davomida kuchayib boradi. Bu holat, ayniqsa, talaba qizlarda yanada og'irroq oqibatlariga olib kelishi

mumkin. Qizlarning kelajakda turmush qurib, ona bo'lishi uchun monelik qiladigan, tug'ishni qiyinlashtiruvchi salbiy vaziyatlar ortib boradi. Bunday noxush holatlarning oldini olishda jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari eng ta'sirchan vosita hisoblanadi. Ular talabalar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning markaziy asab, nafas olish, yurak qon-tomir, ovqat hazm qilish, ichki sekretsiya bezlari hamda harakat-tayanch tizimlari ish faoliyatini mislsiz darajada yaxshilanishiga olib keladi. Bunday mashq qilgan odam organizmi har qanday qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'ladi, muhim hayotiy maqsadlarni o'z oldiga qo'yish, ularni amalga oshirishga harakat qilishni ta'minlab, haqiqiy inson hayotini ma'no-maqsadini tushunishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda talaba yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi tizimini takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, sportchilarni tibbiy ta'minlash ishlarini tashkil etish, sport klublarini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq qo'yidagi vazifalar belgilangan:

talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

talabalar o'rtasida sport turlari bo'yicha jamoalar tashkil etish, ular o'rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, xususan, "talabalar ligasi" tashkil etish orqali iste'dodli yosh sportchilarni aniqlash;

oliy ta'lim muassasalarida — iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar hamda respublika oliy sport mahorati maktablari sport zaxirasini shakllantirish, shuningdek, sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sport turlari bo'yicha haftasiga kamida 6 soatdan sport to'garaklari mashg'ulotlarini tashkil etish hamda jismoniy tarbiya va sport to'garaklarini o'tkazish uchun malakali trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg'or tajribani joriy qilish ko'zda tutilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, talabalarning sportga bo'lgan munosabati va qiziqishini o'rganish, ularning sport mashg'ulotlarini yanada samarali tashkil etishga, jismoniy mashqlarni tizimli ravishda bajarishga jalb qilishga va salomatlikka bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Sportga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash, talabalarni turli sport turlari atrofida birlashtirib, sport musobaqalarida faol ishtirok etishga undaydi. Bu jarayon nafaqat talabalar salomatligini, balki ularning ijtimoiy hamda jismoniy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Xullas, mamlakatimizdagi jismoniy madaniyat va sport to'garaklarini rivojlantirish imkoniyatlari jahon tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda mustahkam zamin yaratadi.

Talabalarga sport to'garaklari orqali jismoniy madaniyatni rivojlantirish har bir ta'lim muassasasining muhim maqsadlaridan biridir. Jismoniy madaniyat, inson sog'lig'ini mustahkamlash, uning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va sportdagi yutuqlarini oshirishga yo'naltirilgan jamiyat va umumiy madaniyatning muhim bir qismidir.



Madaniyatning bu sohasi har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiradi, jismoniy va ma'naviy sog'liqning mustahkam asoslarini yaratadi. Dunyo bo'ylab jismoniy tarbiyaga qaratilgan e'tibor va uning rivojlanishi mamlakatlarning taraqqiyoti va ta'lim tizimlarining asosiy komponenti sifatida ahamiyat kasb etadi. Jismoniy madaniyatga bo'lgan bu yondashuv, nafaqat sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga, balki umumiy jamiyatning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Musayev B.B. Sport metrologiyasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. -Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2015 yil. - 200 bet.
2. Olimov M.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017 y. 232 bet.
3. Raxmatov O.U. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari №3(3) 2023. SCIENCEPROBLEMS.UZ
4. Sultonova N.Ya. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Buxoro. Durdon nashriyoti. 2023. - 196 bet
5. Xamroyev S.S. "Sport to'garaklari orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand-2022 y.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).